



BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI TARIX INSTITUTI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

"TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O'ZLIK"

"НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ"

"LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS:
HISTORICAL EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY"

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

MAQOLALAR TO'PLAMI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-mart





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI TARIX INSTITUTI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
BUXORO INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

**“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI:
TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O'ZLIK”**

**"НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ"**

**"TÜRKİSTAN CEDİTÇİLERİNİN MİRASI:
TARİHSEL DENEYİM VE ULUSAL KİMLİK"**

**“LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS:
HISTORICAL EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY”**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

Buxoro shahri, 2025-yil 12-mart



**BUXORO-2025
“BUKHARA HAMD PRINT” NASHRIYOTI**

Annotatsiya

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqbolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi fidoiylklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish va faol targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirishga bag'ishlangan. Zero, mustabid tuzum tomonidan qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot namoyandalrimizning nomlari va xotirasini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Yosh avlodni vatanparvarlik hamda o'zbek xalqining merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirishda ma'rifatparvar jadidlarning jasorati va ibratli faoliyati muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tashkil qilingan ushbu anjuman yuksak maqsadlarni o'zida jamlagan, mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoiy ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatish, jadidlar merosini targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur to'plamda xorijiy mamlakatlar hamda Respublikamizdagi nufuzli oliygohlarning professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalarning tezis hamda maqolalari, ilmiy-nazariy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный международный научно-практический форум посвящен расширению изучения и пропаганды значимой роли и важности просветителей-джадидов в истории нашей страны и мира. Кроме этого их самоотверженному труду в создании духовных основ национальной независимости, их образцовой жизни и деятельности и ещё богатого научного и творческого наследия, которое они оставили. Действительно, важной задачей является увековечение памяти и чести тысяч наших соотечественников, в том числе государственных и общественных деятелей, представителей науки, культуры, искусства, литературы и простых профессионалов, которые были репрессированы тоталитарным режимом. Их мужество и стойкость служат примером для воспитания молодого поколения в духе любви и верности Родине. Почтение памяти наших самоотверженных предков, которые боролись за торжество независимости и справедливости, а также пропаганда образцовой деятельности и мужества просветителей-джадидов играют важную роль в формировании идеологического иммунитета у молодежи. В данный сборник включены тезисы, статьи и научно-теоретические исследования преподавателей и профессоров престижных университетов Республики и зарубежных стран, а также научных исследователей, преподавателей религиозных учебных заведений, магистрантов и талантливых студентов.

Annotation

This international scientific-practical conference is dedicated to expanding the study and promotion of the significant role and importance of the Jadid enlightenment figures in the history of our country and the world, their selfless efforts in creating the spiritual foundations of our national independence, and their exemplary lives and activities, as well as the rich scientific and creative heritage they left behind. Indeed, a vital task is to perpetuate the memory and honor of thousands of our compatriots, including state and public figures, representatives of science, culture, art, literature, and even ordinary professionals, who were repressed by the oppressive regime. Their courage and resilience serve as a model for educating the younger generation in the spirit of love and loyalty to the homeland. Honoring the memory of our selfless ancestors, who fought for the triumph of independence and justice, and promoting the exemplary activities and bravery of the Jadid enlightenment figures play an important role in fostering ideological immunity among the youth. This collection includes theses, articles, and scientific-theoretical research by professors, educators from prestigious universities in our Republic and abroad, as well as scientific researchers, instructors from religious educational institutions, master's students, and talented students.

“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN DASTURIY QO‘MITA TARKIBI

- | | |
|--------------------------|--|
| 1. B.B. Ma‘murov | – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Sh.N.Murodov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | – Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiypedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo; |
| 4. D.Yu. Nematov | – Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i, a‘zo |
| 5. E.M. Muxtorov | – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo; |
| 6. N.I. Davronov | – O‘quv - uslubiy boshqarma boshlig‘i, a‘zo; |
| 7. N. J. Yadgarov | – Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, a‘zo; |
| 8. A.Z. Sharipov | – Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, a‘zo; |
| 9. X.X. Raxmatova | – Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.d.(DSc), a‘zo. |
| 10. Z.I. Narziyev | – Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.f.d, a‘zo. |

TAHRIR HAY'ATI:

Abduhakim Ziyoitdinovich SHARIPOV – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri falsafa fanlari doktori (DSc), professor.

Ochil Sirojovich SIROJOV – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, tarix fanlari nomzodi

Xolidaxon Xoliqovna RAXMATOVA – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, falsafa fanlari doktori(DSc)

Rajab Ergashevich QILICHEV – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Zubaydillo Ibodilloevich NARZIYEV – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mubin Rustamovich SHOKIROV – Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

9. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAHMUDXO 'JA BEHBUDIY–TURKISTON JADIDCHILIK HAKAKATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.

10. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

11. Sh, Ahmadov O. "O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING 2.8 (2023): 65-70.

TURKISTON O'LKASI JADIDCHILIK HAKAKATI NAMOYONDALARIDAN

ABDULLA AVLONIYNING MARIFATPARVARLIK G'OYALARI

Haydarqulova Mahliyo Zafarovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola jadidchilik harakatining kelib chiqishi va Turkiston o'lkasi jadidchilik harakati namoyondalaridan Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishi, jadidchilik harakatida tutgan o'rni, teatr uchun va maktab uchun yozgan asarlari, darsliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, millat, vatanparvarlik, yangi usul maktabi, teatr, marifatparvarlik, darslik, "Jamiyati xayriya", komediya, gazeta.

Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasiga jadidchilik harakati yoyila boshladi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayevlar.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun

kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; turli maʼrifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy gʻoya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni oʻrta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- shariatni isloh qilish
- xalqqa maʼrifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament
- keyinchalik demokratik respublika tuzumini oʻrnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qoʻshin tuzish.

Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan tomonidan ochilgan madaniy-maʼrifiy yoʻnalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Mashhur oʻzbek maʼrifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tugʻilgan. Eski maktabda savod chiqargan madrasada tahsil oldigan. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan mehnat qildi, gʻisht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shugʻullandi, «Imoratchi usta» degan nom oladi. Abdulla Avloniyning sheʼrlari 15 yoshidan boshlab matbuotda eʼlon qilina boshladi. Abdulla Avloniy jadidchilik harakati rahbarlaridan biri boʻlgan. Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizgʻin faoliyati, koʻplab publitsistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlagʻon, ikkinchi yoqdan el orasiga oʻzgarish tuxmini sochgʻon» ham Abdulla Avloniy boʻldi. Avloniy oʻzi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi. U Turkistonda birinchilardan boʻlib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga taʼsir koʻrsatdi, taʼlimni real turmush bilan bogʻlashga intildi, bir dars bilan boshqasi oʻrtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga oʻtishdagi imtihonni joriy etdi, taʼlim tizimining dunyoviy yoʻnalishini kuchaytirishga alohida eʼtibor berdi.

Abdulla Avloniyning «Birinci muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qoʻllanmalari maktablarda oʻqitilgan. Avloniy «Turon» (1917) gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» degan shiorni tanladi, «Turon» nomli teatr toʻgaragini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni toʻpladi, ayrim rollarni ijro etishda oʻzi ham qatnashdi. U 1934-yil 24-avgustda Toshkentda vafot etdi.

Turkiston oʻlkasining XX asr boshlariga kelib, yangi islohotlar qurshovida qolishi jadidchilik faoliyatining ham rivojlanishiga imkon yaratdi deyish mumkin. Xalqning savodli boʻlishida yangi usul maktablarini ochish, milliy madaniyatimizning targʻib etilishidagi oʻquv darsliklarining chop etilishi Abdulla Avloniy nomi bilan bogʻliqlikni tashkil etadi. Abdulla Avloniy yaratgan asarlarida oʻzi bilgan maʼlumotlarni dunyohamjamiyatining oʻquv darsliklari bilan tahliliy ravishda taqqoslab bir qator darsliklarning yaratilishida bosh boʻldi. Arab tili shu jumladan: fors, rus tillarini bilgani holda oʻzi yashab turgan hududlari hamda Degrezliq, Mirobod kabi hududlarda yangi usul maktablarini ochdi. Abdulla Avloniy nomi oʻtgan XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatlarining, milliy ozodlik harakatlarida hamda yangi usul maktablarining paydo boʻlishida katta hissa qoʻshdi.

1909-yigʻdan boshlab yetim bolalarni oʻqitish va ularning savodini chiqarishda «Jamiyati xayriya» tashkilotining ahamiyati kattadir. Abdulla Avloniy maʼrifatchilik ishlarida maktabdorlik vazifasi bilan birgalikda, xuddi shu maktab oʻquvchilarining tez savod chiqarishlarida manba

sanaluvchi “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomi ostidagi 4 qismni tashkil etuvchi she’riy to’plami maktab darsliklari sifatida o’tila boshlandi. “Munavvarqabri Abdurashidxon O’g’li, Muhammadjon Podshoxo’jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov va boshqalar bilan sherikchilikda “Nashryot”(1916), “Maktab” (1916) shirkatlarini tuzdi. “Taraqqiy”, “Shuxrat”(1907), “Osiyo”(1908), “Turon”(1917) gazetalari chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi “Ishtirokiyun”ning tashkilotchilaridan bo’ldi”. [1] Haqiqatdan ham, Abdulla Avloniy faoliyatining maktabdorlik bilan bog’liq ekanligi uning jadidchilik faoliyatida amalga oshirilgan islohotlarda faol ekanligida va qolaversa, butun Turkiston o’lkasida ochila boshlagan kutubxona, maktablar, nashryotlarning Abdulla Avloniy nomi bilan bog’liqdir.

Abdulla Avloniy maktablarining gumanistik g’oyalar bilan birgalikda erkin tarbiyaga asoslangani holda amalga oshirilishi o’quvchilarning tez savod chiqarishida vosita vazifasini o’taydi. Ilm-u ma’rifatning targ’ib qilinishi, dunyo siyosatida bo’layotgan yangiliklar hamda jaholat botqog’idan qutulish eng muhim vazifa sanalib, milliy ozodlikka erishning eng muqobil yo’li ma’rifatli xalqni tarbiyalash deya qaralgan. Abdulla Avloniyning asarlari o’zlashtirish uchun qulay, tili sodda, she’riy asarlar namunasida barmoq vaznining mohirona qo’llanilishi o’quvchilar tez o’zlashtirishlari uchun ko’nikma vazifasini bajargan.

Abdulla Avloniyning xalq kundalik turmushda qo’llaniladigan she’rlar, hikoyalarni milliy ashulalar asnosida o’quvchilarga yangi talqinda yetkazish savod chiqarishdagi yangicha 32 qarashlarni ifodalab beradi. Shu asnosida tanqidiy, tahliliy ruhda yaratilgan “Bir mardikorning otasi o’g’liga aytgan so’zlari”, “Onasining o’g’liga aytgan so’zlar”, “Afsus” kabi she’rlari timsolida jamiyat hayotidagi voqeliklar, hodisalar qalamga olinadi. Bu esa badiiy talqin jihatidan o’zlashtirish uchun qulay, ma’lum bir ma’noda oyna vazifasini o’tagan deyish mumkin. Abdulla Avloniy yangi usul maktablarining targ’ibotchisi, shu bilan birgalikda yangi usul maktablarida o’qitish uchun o’quv-darsliklarining estetik jihatdan yaratilishida eng oldi jadidlardan biri edi. Turkiston o’lkasida XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol hududlarda teatrlarning ochilishi va qolaversa ushbu teatrlarda sahna asrlarining yaratilishida tashkilotchilik qobiliyati bilan boshqa jadidchilik vakillaridan ajralib turadi.

Turkiston o’lkasida jadidchilik harakatlari asnosida yaratilgan sahna asarlarining tub estetik mohiyati, obrazlarning yaratilishi, tomoshabinlar bilan ishlash texnikasi ma’lum bir ma’noda Abdulla Avloniy nazoratida turgan. Abdulla Avloniy ana shunday vazifalar asosida jamiyat hayotini tanqidiy kulgu ostiga oluvchi “Advokatlik osonmi”, “Pinak” nomli komediyalarini ham yartish bilan birga Turkiston o’lkasida amalga oshirilayotgan istibdod tanqid ostiga olinadi. Bunda kichik bir voqealar namunasida ko’plab yomonliklarning yuzaga kelishi, ilmsizlikning qusurlari fojea tarzda qalamga olinib, tanqidiy kulgu ostiga olinadi. Bir qaraganda kulguli bo’lgan voqealarning jamiyat hayotida tutgan o’rni, kulgu ostida o’sha davr muhitidan kelib chiqib Turkistonning eskilik ruhiyatida qolib ketishi qalamga olinadi. O’lkada amalga oshirilyotgan yangiliklar ko’lamining ahamiyati mana shunday asarlar namunasida yoritib berilgan. Shoir o’tmishda ma’rifat gulshani bo’lgan yurtimizning jaholat botqog’iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm ma’rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta’kidlaydi. Shu ma’noda shoirning “Ilmga targ’ib”, “Jaholat”, “Istiqboldan orzularim”, “Millatga salom” she’rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan”.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiston o’lkasining jadidchilik faoliyatida tutgan o’rni va ahamiyati Abdulla Avloniy nomi bilan bog’liqlikni yuzaga keltiradi. Abdulla Avloniy o’zining tashviqot ishlari orqali, o’lkada amalga oshirilayotgan tashviqot ishlari, yangi usul maktablari va ularning faoliyati Abdulla Avloniy asarlarida obrazlar va timsollar orqali yoritib beriladi. Aytish mumkinki, o’lkada bunyod etilgan yangi usul maktablari, nashryotlar, teatr birlashmalarining sermahsul faoliyati yuritishi Abdulla Avloniyning sayi haralatlari natijalaridan biri sifatida baholaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 2022-yil 17-oktabr.
2. Saifova Nodira "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar". "Scientific and Education" Scientific journal – 2022.
3. Buyuk "Ma'rifat va buyuk yurt fidoiysi" atoli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy. Bibliografik sharh. Yangiyer -2020
4. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
www.ziyounet.uz
www.arxiv.uz
www.edu.uz

TURKISTON JADIDLARINING MA'RIFIY ISLOHOTLARI: YANGILANISH

G'OYALARI VA ASOSIY VAZIFALARI

Tillayev Rizvan Mamarizoyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti: (ingliz tili) yo'nalishi 1 – bosqich magistranti

Annotatsiya. Turkiston jadidchiligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mintaqada keng tarqalgan islohotchilik harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ilm-fan, ta'lim va madaniyat orqali yangilash edi. Jadidlar zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish, milliy ongni uyg'otish va taraqqiyotni tezlashtirish uchun harakat qildilar. Ularning g'oyalari orasida yangi usul maktablarini tashkil etish, matbuotni rivojlantirish va diniy hamda dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish muhim o'rin tutgan. Ushbu maqolada jadidlarning ma'rifiy faoliyati, ularning asosiy maqsad va vazifalari tahlil qilinadi hamda bu harakatning Turkiston taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati nafaqat ta'lim sohasida, balki ijtimoiy va madaniy hayotning turli jabhalarida ham aks etdi. Ular gazeta va jurnallar chiqara boshladilar, teatr spektakllari sahnalashtirdilar va milliy adabiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar. Shuningdek, ayollar ta'limiga alohida e'tibor berib, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga intildilar. Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri Turkiston xalqlarini jaholat va qoloqlikdan chiqarib, ularni ilg'or ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirish edi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, ma'rifat, islohot, ta'lim, madaniyat, zamonaviylik, milliy ong, matbuot, taraqqiyot.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati paydo bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ilm-fan, ta'lim va madaniyat orqali yangilash edi. Ushbu harakat mustamlaka siyosati sharoitida yashagan musulmon xalqlarining madaniy-ma'rifiy rivojlanishiga turtki bo'ldi. Jadidlar an'anaviy ta'lim tizimini isloh qilish, milliy matbuotni rivojlantirish va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yangilanishlarni amalga oshirishga intildilar. Ushbu maqolada jadidlarning yangilanish g'oyalari, ularning asosiy vazifalari va Turkiston taraqqiyotidagi o'rni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmida Usmonli imperiyasi va Yevropaning ilg'or mamlakatlaridagi islohotchi harakatlar ta'sirida shakllandi. Jadidlar o'z davrining ilg'or fikrlovchilari bo'lib, ular Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlarning qoloqligini bartaraf etish va ularni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishga intildilar. Ular Turkistonda yangi usul maktablarini tashkil etish orqali an'anaviy madrasalar tizimining zaif tomonlarini to'g'rilashni maqsad qildilar.

BUXORODA JADIDCHILIK TA'LIM TIZIMI: UMUMIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK - Azimova Kamola Karimovna.....	216
JADIDLARNING TIL BORASIDAGI ISLOHOTLARI VA UNING O'ZBEK MADANIYATIGA TA'SIRI - Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi	218
JADIDLAR MEROSI – TURKISTONDA GEOGRAFIYA FANINING TARAQQIYOTI - Erkinov Ramziddin Tulqin o'g'li.....	220
O'ZBEKISTONDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNI JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI - Azimova Kamola Karimovna	225
TURKISTON O'LKASI JADIDCHILIK HARAКATI NAMOYONDALARIDAN ABDULLA AVLONIYNING MARIFATPARVARLIK G'OYALARI - Haydarqulova Mahliyo Zafarovna...	227
TURKISTON JADIDLARINING MA'RIFIY ISLOHOTLARI: YANGILANISH G'OYALARI VA ASOSIY VAZIFALARI - Tillayev Rizvan Mamarizoyevich	230
TURKISTON JADIDLARNING MA'RIFIY FAOLİYATI - Abduhamidov Doniyorek Yodgorxoja o'g'li	233
TURKISTON JADIDLARINING MA'RIFIY FAOLİYATI: G'OYALARI, MAQSADLARI VA VAZIFALARI - Sanoyeva Ruxshona Siroj qizi	235
JADIDCHILIK HARAКATI: MA'RIFAT VA ISLOHOT YO'LIDA - O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li	237
TURKUSTON JADIDLARINING MA'RIFIY FAOLİYATI - Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li	240
JADIDCHILIK TARIXIDA IQTIDORLI YOSHLARNI CHET ELGA O'QISHGA YUBORISH MASALASI - Sadirova Mehriqiy Dilshod qizi	243
3-SHO'BA: JADIDCHILIK MILLIY HARAКATI NAMOYONDALARI ILMIY MEROSINI O'RGANISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI (FANLARARO TAQIQOTLAR MISOLIDA)	
JADIDLAR MEROSINING TURKIY XALQLAR TARAQQIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI - Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li	247
ПРОФЕССОР ФИТРАТНИНГ “ЕР МАСАЛАСИГА ДОИР УЧ ВАСИҚА” АСАРИ - Ҳамидулла БОЛТАБОЕВ	250
ИСМОИЛБЕК ГАСПИРАЛИ ВА БУХОРО ЖАДИДЛАРИ - Ҳайитов Шодмон Аҳмадович	253
ABDURAUF FITRATNING RAHBARI NAJOT ASARIDA RIYO TUSHUNCHASI TAHLILI - Yunusova Gulandom Samiyevna	254
FITRATNING ARUZGA DOIR QARASHLARI - Saidov Yoqub Siddiqovich	256

**“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI:
TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK”**

**"НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ"**

**"TÜRKİSTAN CEDİTÇİLERİNİN MİRASI:
TARİHSEL DENEYİM VE ULUSAL KİMLİK"**

**“LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS:
HISTORICAL EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY”**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

Buxoro shahri, 2025-yil 12-mart

<i>Muharrir:</i>	<i>H.Qahhorov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>O.Jabborov</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>M.Kuziyeva</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>X.Axrоров</i>

Nashriyot litsenziyasi № 040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 10.03.2025. Bichimi 60x84. Kegli 12 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 93.5. Adadi 100. Buyurtma № 160



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy.